



OLAMNING LISONIY MANZARASIDA GENDER STEREOTIPLARINING O‘RNI

Shamshiyeva Diyora Isroilovna

Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada olamning lisoniy manzarasida gender stereotiplarining ifoda etilishi va ularning o‘rni yoritilgan bo‘lib, mavzuning mohiyati, uning dolzarbligi, gender stereotiplarining tadqiqi va ularning tilda aks etishi tahlil qilingan. Shuningdek, gender lingvistikasi tadqiqining sotsiologik, psixologik tadqiqotlardan farqli jihatlari umumiy tarzda yoritib berilgan. Gender stereotiplarining tilda aks etishini alohida tadqiq etish zarurati “Gender tilshunosligi” fanining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: olamning lisoniy manzarasi, stereotip, gender stereotiplari, “ayollarga xos” va “erkaklarga xos” xulq-atvor, gender lingvistikasi, genderologiya, feminizm, ichki va tashqi stereotiplar.

THE ROLE OF GENDER STEREOTYPES IN THE LIATIC LANDS OF THE UNIVERSE

ABSTRACT This article contains gender stereotypes in the lianonic lands of the universe, which is analyzed that the essence of the topic, its relevance, gender stereotypes and their language is reflected in language. The study of gender linguistics is also widely covered by aspects of sociological, psychological research. The need for the display of gender stereotypes in the language was the basis for the “Gender linguicism”.

Key words: the liaison view of the universe, stereotype, gender stereotypes, “women’s women” and “men order” behavior, gender linguistics, genderology, feminism, internal and outer stereotypes.

РОЛЬ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В ЛИАТИЧЕСКИХ ЗЕМЛЯХ ВСЕЛЕННОЙ

АННОТАЦИЯ Ее актуальность, гендерные стереотипы и их язык отражены на языке. Изучение гендерной лингвистики также широко освещается аспектами социологических, психологических исследований. Необходимость изучения проявления гендерных стереотипов на языке была основой для «Гендерного лингвизма».

Ключевые слово: связанный вид вселенной, стереотип, гендерные стереотипы, поведение «мужчин» и «женского», гендерная лингвистика, гендерология, феминизм, внутренние и внешние стереотипы.

KIRISH

“Gender stereotiplari” bir necha fanning tadqiqot obyekti sanaladi. Bu dolzarb masalani o‘rganish natijasida fanlar tarmog‘ida “gender sotsiologiyasi”, “gender psixologiyasi”, “genderologiya”, “gender lingvistikasi” kabi yangi sohalar yuzaga keldi. Bu sohalarining har biri o‘z tadqiqida genderning sohaga xos jihatlarini yoritishga xizmat qilmoqda.

Bir qarashda zamonaviy tadqiqot mavzusidek ko‘ringan bu masalaning o‘rganilish ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ya’ni ayol va erkakning jamiyatdagi roli, ularning vazifalari va jamiyatda tutgan mavqeyi borasidagi bahslar haligacha o‘z yechimini topgan emas. Zero, gender stereotiplarining shakllanishida bunday tarixiy qarashlarning o‘rni katta hisoblanadi. Chunki bunday stereotiplar zanjir ko‘rinishida avloddan avlodga o‘tib, singdirib kelinmoqda.

Mavzuni tushunishga intilar ekanmiz, undagi terminlar mazmuniga murojaat qilishimiz lozim. Ularni mohiyatan uch tarkibga bo‘lish mumkin: *olamning lisoniy manzarasi*, *stereotip* va *gender stereotiplar*. “Olamning lisoniy manzarasi” birikmasi lingvomadaniyatshunoslik sohasida keng o‘rganilgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu termin fanga L.Vaysgerber tomonidan kiritilgan bo‘lib, olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo‘lgan odatiy hamda majburiy usullari majmuyi; olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig‘indisi. Har bir tabiiy til olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.⁴²⁶ Umuman aytganda, har bir inson til orqali borliqni anglashga harakat qiladi va bu til inson dunyoqarashi, madaniyatining rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir inson olam haqidagi bilimlarni til orqali oson o‘rganadi va mana shu til(lison) orqali o‘z ongida olamning manzarasini yaratib boradi.

ASOSIY QISM

“Stereotiplar” psixologiya sohasida keng tadqiq etib kelinayotgan bo‘lsa-da, lingvistik termin sifatida ham lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik sohalarida keng o‘rganilayotgan tushunchalardan biridir.

Stereotip (yunoncha stereos – qattiq + typos – tasvir; U.Lippman termini) – 1)lingvokulturologiyada: olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara; predmet va vaziyatlar haqidagi turg‘unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etishi;

⁴²⁶ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya termin larining qisqacha izohli lug‘ati. T.: Turon zamin ziyo-2015, 33-b.

2) kognitiv tilshunoslikda: ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar haqidagi qoliplashgan tushuncha, qarashlar.⁴²⁷

E.Aronsonning fikricha, stereotip asosida fikrlash – bu guruhda uning a‘zolari o‘rtasidagi real farqliklarga e‘tibor bermagan holda har qaysi insonga bir xil tasnif berishdir.⁴²⁸ Demak, stereotiplar shaxsni individ sifatida emas, balki ijtimoiy guruh vakili sifatida baholaydi. Masalan, kuchli yoxud qo‘pol so‘zi erkaklarga; nozik, sergak sifatlari faqat ayollarga xos deb baholaymiz. Vaholanki, bu sifatlarni har ikki jins vakillari orasidan topish mumkin.

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Robert Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa, “gender stereotiplari” atamasini V.V.Krasnix *“Ayol va erkakning sotsiumdagi rollariga oid munosabatning biologik va ijtimoiy qatori”*, deya ifodalaydi. Gender stereotiplari ikki jins vakillari orasida ularga tegishli bo‘lgan umumiy ijtimoiy xulq-atvor majmuyidir.⁴²⁹ I.S.Kletsina esa stereotiplarga quyidagicha ta‘rif beradi: “Gender stereotiplari deganda “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari to‘g‘risidagi andozalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi.”⁴³⁰ I.S.Kletsina bu ta‘rifda maskulinlik va feminlikka oid faqatgina ijobiy stereotiplarni nazarda tutgan deyishimiz mumkin. Chunki “model” va “andozalashtirilgan” so‘zlari bevosita ijobiy stereotiplarga ishora qilmoqda. Ammo sotsiologik, psixologik va lingvokulturologik tadqiqot natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, gender qarashlarda ijobiy stereotiplardan ko‘ra salbiy stereotiplar keng qo‘llanadi. Masalan, erkakning rahbar bo‘lishi ayol esa oddiy ishchi sifatida ko‘rilishi, erkak ko‘p pul topa olishi ayolning o‘rni esa oshxonada bo‘lishi haqidagi qarashlarga ko‘p duch kelamiz va bu bir qarashda normal holatdek ko‘rinadi. Aslida, bu qarashlarning yuzaga kelishida gender stereotiplarning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Gender lingvistikasining vujudga kelishi. Gender stereotiplari tilda bevosita aks etgani bois XX asrning oxirlarida alohida fan sifatida yuzaga keldi. Aslida bu kabi fan va sohalarning yuzaga kelishiga ayollar huquqlarini mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash, ularni jamiyatning quyi qatlami sifatida baholash sabab bo‘lgan deyish mumkin. Buni bir necha sotsiologik tadqiqotlar isbotlab bergan. Natijada “genderologiya”, “feminizm”, “feministik tilshunoslik” kabi yo‘nalishlar yuzaga keldi.

Har bir inson xarakteri, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari bilan birga undagi ijobiy va salbiy stereotiplar ham tilda aks etadi. Shuning uchun inson qarashlarini belgilashda til eng muhim belgi hisoblanadi. Misol uchun, biror millat, xalqning erkak va ayollariga xos gender stereotiplarini o‘rganish uchun o‘sha xalqning tarixiy va badiiy asarlari tiliga murojaat qilish lozim. Badiiy asar tili ma‘naviyatimiz, madaniyatimiz ko‘zgusidir. Shunday ekan, tilimizda

⁴²⁷ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. T.: Turon zamin ziyo-2015, 36-b.

⁴²⁸ Арансон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию/пер. С англ. Аспект Пресс.М. 1999. с.307.

⁴²⁹ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. 284 с.

⁴³⁰ Клецина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие. С.-Петербург, изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 1998. с.19.

bevosita aks etadigan gender stereotiplarni o‘rganish, kuzatishda badiiy asarlar bizga katta yordam beradi. Tilimizda bir necha asrlar davomida aks etib kelgan bir nechta stereotiplar ongimizda gender ramzlar sifatida muhrlanib qolgan deb bimalol aytishimiz mumkin. Bu stereotiplar mumtoz adabiyotda aynan bir xil tasvirlar bilan ifodalanadi. Bunday stereotiplarni aks etishiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin:

- 1) tashqi (ko‘rinishni ifodalovchi) stereotiplar;
- 2) ichki (xarakter xususiyatini ifodalovchi) stereotiplar.

Masalan, ayollarga xos gender stereotiplar: *“noziklik”, “latofat”, “go‘zallik”, “qaddining sarv yoxud sanavbardek tikligi”, “belning qildan ham ingichkaligi”, “qoshlarining kamonga, arab tilidagi “ي”, “ن” harflariga, “ko‘zlarining tunga, qotilga, ohu ko‘zlariga, “ص” harfiga”, “lablarining nuqtaga, la’lga, g‘unchaga o‘xshatilishi”* asrlar davomida shakllanib kelgan. Bu tashqi stereotiplar mumtoz adabiyotimizda yorning an‘anaviy tasvirini yuzaga keltirgan. Bu tashqi go‘zallikka xos yorning ichki xarakterini yoritib beruvchi sifatlar ham shakllanib borgan: *“oshiqqa nisbatan beparvolik”, “yolg‘onchilik”, “bevafoqlik”, “hayo”, “zolimlik (yorga nisbatan)”* va h.k.

Shuningdek, oshiqning holati ma‘shuqaga qarama-qarshi ravishda, ya‘ni *“bechorahollik”, “rangi xazondek sarg‘aygan”, “ko‘zidan qonli yoshlar oqadigan”, “qaddi kamondekyoki “د” harfidek egik”, “devona”, “qul”* kabi tasvirlanadi. Uning ichki holati esa *“har qanday jabr-sitamga bardoshli”, “yoriga har qachon sodiq”, “yorining bir iltifotiga muhtoj”* va *“har qancha jabr chekmasin ishqidan voz kechmaydigan”* obraz sifatida gavdalanadi. Bu tasvirlar an‘anaviy tasvirlar bo‘lib, oshiq va ma‘shuq munosabatining zanjiri sifatida shakllanib ulgurgan va mumtoz adabiyotdagi bu sifatlar ayollar va erkaklarga xos o‘zgarmas stereotiplar shaklida takomillashib kelgan. Ammo o‘zbek tarixiy gender stereotiplarini faqatgina shu manbalar orqali belgilash to‘g‘ri emas. Chunki lirik asarlardan farqli o‘laroq, badiiy asarlarda qahramonlar tasviri ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Dostonlarda qahramonlar umumiy stereotiplar asosida emas, balki shaxsning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, *“Alpomish”* dostonida Hakimbekning mardligi, alp bahodirligi bilan birga biroz qat‘iyatsizligi ham ochiq tasvirlangan. *“Oybarchin”* obrazi ham umumiy stereotiplardan chekingan holda tasvirlangan. Ya‘ni an‘anaviy timsollarga ko‘ra ayollar nozik, tortinchoq, uyatchan holatda tasvirlansa, Oybachin erkka tashna, qat‘iyatli, jasoratli obraz sifatida keltirilgan. Bunday sifatlar asarda bevosita so‘zlar orqali berilmasa-da, voqealar rivoji, qahramonlar o‘ylari, xatti-harakatlari, monolog va dialoglar orqali anglashiladi.

XULOSA

Aslida, har bir shaxs o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi. Ularni jamiyatning ma‘lum bir qolipiga solish to‘g‘ri emas. Ammo gender stereotiplariga shaxsni ma‘lum bir qolipga soluvchi belgilar deb emas, ko‘proq insonlar ega bo‘lishga intilishi lozim bo‘lgan ijobiy sifatlar majmuyi deb qarash lozim. *“Aslida, jamiyat uchun stereotiplar kerakmi?”*, degan haqli savol tug‘ilishi mumkin. Albatta, kerak. Faqat ularning ijobiy va salbiy jihatlarini farqlab olishimiz lozim. Chunki uning salbiy jihatlarini (gender tengsizlik, gender zo‘ravonlik, gender xurofot) jamiyatga

zarar yetkazishini inkor etmagan holda, uning ijobiy jihatlari (“ayollarga xos” va “erkaklarga xos” farqli xarakterning mavjud bo’lishi, oilada erkakning o‘rni, o‘zaro hurmatga asoslangan gender munosabatlarning mavjudligi)dan ham voz kechmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. T.: Turon zamin ziyo-2015.
2. Арансон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию/пер. С англ. Аспект Пресс.М. 1999.
3. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. - М.: Гнозис, 2002.
4. Клецина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие. С.-Петербург, изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 1998.
5. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007.
6. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. T.: O‘zbekiston, 2003.
7. Ahmedov B.R. “O‘zbek tilida gender tadqiqi” Andijon, 2012.
8. Ikramova S.A. Olamning lisoniy manzarasi: tushuncha va talqin// O‘zMU xabarlar. - Toshkent, 2015.